

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ҚАРШИ ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ВА
РЕКРЕАЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ГЕОГРАФИК МУАММОЛАРИ ВА
ИМКОНИЯТЛАРИ

Республика илмий - амалий конференцияси
МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 19-май

Қарши – 2021

67	Маликов Б. Б., Ортиқова Д. Б.	Ўрта Зарафшон ҳавзаси ландшафтларини текширилиш тарихи	180
68	Очиллов И. С., Эшмуродов О. Р., Султонов Ш. А.	Чакилкалян мегаблокидаги Акба майдонининг карлин типдаги апокарбонатли олтин минераллашуви	183
69	Тўланова Н. Д.	Миллий боғларни функционал зоналарга ажратишнинг геоэкологик жиҳатлари	185
70	Akbarov S. B., Pirnazarova S. A.	Tuproq eroziyasi va uni oldini olish masalalari	187
71	Usmanova R., Ziyodullayeva Sh.T.	Atmosfera havosi ifloslanishining inson salomatligiga ta`siri	189
72	Xayitov Yo. Q., Rajabova M. O.	Buxoro viloyatidagi ayrim suv inshootlarining gidrologik tahlili	191
73	Akbarov S. B., Pirnazarova S.	Gidrotexnik inshootlarning atrof-muhitga ta`siri (Samarqand viloyati suv omborlari misolida)	194
74	Usmanova R., O`roqova Yu. A.	Qashqadaryo havzasi suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari	195
75	Usmanova R., Ziyodullayeva Sh. T.	Tibbiy landshaftshunoslik tadqiqotlari ob – havo omillarini O`rganilishi asosida	199
76	Xayitov Yo.Q., Ramazonova I.A.	To`dako`l suv omboridan foydalanishning optimal yo`llari	201
77	Xayitov Yo.Q., Sherqulov X. J.	Zamonbobo ko`lining ba`zi gidrologik xususiyatlari	202
78	Fўдалов М.Р. Мухамедов О.Л.	Айдар-Арнасой қўллар тизими таъсирида ландшафтлардаги ўзгаришларни прогнозлаш	204
79	Пайзуллаев М. А.	Андижон вилояти рекреацион ресурсларининг шаклланиши ва ривожланишида иқлимий ресурсларнинг роли	209
80	Ходжиматов А.Н., Горшунова А.М., Абдулҳакимов А.Б.	Иқлим ўзгариши: моҳият ва ер-сув-яйловлар дегредацияси	211
81	Пирназаров Р. Т., Муҳитдинов И. И.	Кўксув дарёси оқимининг шаклланишида гидрометеорологик омилларнинг роли	213
82	Жангабаев Д.М.	Орол денгизи дегредацияси давридаги сув баланси динамикаси	216
III ШУЪБА ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИЯ			
83	Файзуллаев М. А.	Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва районлаштириш масалалари	218
84	Эрдонов М., Омонтурдиев А.	Денов туманини ижтимоий ва иқтисодий ривожлантириш масалалари	220
85	Калонов Б. Ҳ.	Жанубий Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги тармоқларини ҳудудий жойлаштириш масалалари	223
86	Кувандиков О.Х., Джумабоев Т.Дж.	Самарқанд вилоятида узумчиликни ривожлантиришнинг ҳудудий жиҳатлари	225
87	Эрдонов Л. Н., Азизова М. Н.	Қашқадарё вилояти саноат тармоқлари ривожланишининг иқтисодий – географик жиҳатлари	228
88	Алланов Қ.А., Эрдонов М.Н., Чориев А.Қ.	Сурхондарё вилоятида енгил саноат тармоқларини ривожлантириш масалалари	231
89	Abdinazarova X. O.	Kimyo sanoatini iqtisodiy geografik o`rganishning ilmiy nazariy asoslari	234
90	Навотова Д. И.	Қашқадарё вилояти суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва геоэкологик вазияти	237

91	Қаландаров У. С., Гулимматов И. Б., Авезов С.А.	Хоразм вилояти қишлоқ хўжалигида агроиклимий ресурслар ва улардан фойдаланиш	239
----	---	---	-----

ZAMONBOBO KO'LINING BA'ZI GIDROLOGIK XUSUSIYATLARI

Xayitov Yozil Qosimovich
geografiya fanlari doktori (DSc) professor

Buxoro davlat universiteti
Sherqulov Xurshid Jamshid o'g'li
magistrant, Buxoro davlat
universiteti

Buyuk ne'mat hisoblangan suvdan tejab-tergab foydalanishimiz, asrashimiz, toza saqlab, kelajak avlodga yetkazishimiz har birimizning vazifamiz va insoniy burchimiz bo'lishi kerak. –Suv bor yerda hayot borl, –Suv tugagan joyda hayot tugaydil degan hikmatlar odatda cho'l zonasiga tegishli. Ma'lumki mamlakatimiz materikning ichida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi hududimizda cho'l landshaftining shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu jumladan viloyatimiz ham ana shunday cho'l zonasida joylashgan bo'lib, shundan hududni suv resursi bilan taminlash dolzarbdir.

Mamlakatimiz hududida 250 ga yaqin ko'llar bo'lib, viloyatimiz hududida 10 dan ortiq katta kichik ko'llar joylashgan. Shular jumlasidan: Dengizko'l, Sho'rko'l, Zamonbobo, Xadicha, Qoraqir va boshqa ko'llar hududdagi muhim suv havzalari hisoblanadi. Bu suv havzalari viloyat hududidagi iqlimning shakllanishida shu bilan birga tuproq, geoeologik holatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ko'llarning tabiiy geografik sharoitlarini, gidrologik xususiyatlarini o'rganish, ulardan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida samarali foydalanish uchun muhim hisoblanadi.

Buxoro viloyati hududi O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-garbiy Qizilqumda, berk havzada joylashgan. Viloyat hududi 2 xil landshaftdan iborat, bo'lib ular cho'l 88,6% va voha 11,4% ni egallaydi. Tabiiy geografik jihatdan viloyat hududining relyefi tekisliklar hamda Quljuqtog', Ko'kchatog', Tuzkoytog'I, Jarqoq, Saritosh, Qorako'l, Dengizko'l, Uchbosh, Qoraqsir, Somontepa, Sho'rquduq, Chorbakti, Nortepa kabi past tog', plato-qirlardan iborat. Mutloq balandlik Quljuqtog' tizmasida 785 m.

Iqlimi keskin kontenental. O'zgaruvchan bahor, uzoq davom etadigan quruq, jazirama yoz, qisqa va o'zgaruvchan kuz, iliq ba'zida esa ayozli qish xarakterli.

Buxoro viloyat hududida yog'in miqdori juda kam va notekis taqsimlangan, o'ta qurg'oqchil zonaga mansub. Yillik yong'inlar o'rtacha 90-150 mm atrofida, mumkin bo'lgan yillik bug'lanish esa 2000 mm.

Viloyatda tabiiy oqar suv manbalari yo'q. Bugungi kunda asosiy suv manbai, 1962-1975 yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanalidir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4,2 – 4,8 km³ suv olinadi va relyef nishabligiga teskari yo'nalishda Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalariga oqiziladi. Buxoro viloyati qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlariga ko'ra jami sug'oriladigan maydon 277720 ga ni tashkil qiladi. Obikor yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar tizimi yaratilgan bo'lib, ular orqali oqava suvlar Oyoqog'itma, Sho'rkol, Qoraxotin, Qoraqir, Zamonbobo, Katta Tuzkon, Kichik Tuzkon, Sho'rko'l-Qamishli, Dengizko'l, Devonxona kabi o'ndan ortiq ko'llarga oqizilmoqda. Ayniqsa, Qorovulbozor tumanining janubiy qismida ularning maydoni yillar o'tgan sayin ortib bormoqda. Keyingi 30 yil ichida Devonxona-1, Devonxona-2, Xadicha va so'nggi 3 yil davomida Qumsulton ko'llari hosil bo'lgan. Suvli landshaftlarning umumiy maydoni 82125 gektar (2,0 %).

Buxoro viloyati ko'llari asosan zovur suvlari asosida shakllangan bo'lib aholi yashash manzillaridan chetda tekislikning turli xil yo'llar bilan hosil bo'lgan chuqurlik va botiqlarda to'plangan. Viloyatimizning janubi-g'arbida joylashgan zovur suvlaridan hosil bo'lgan Zamonbobo

ko'li joylashgan. Qorako'l tumanidagi joylashgan sayoz ko'l hisoblanadi. Ko'lining dengiz sathidan balandligi 190 m. Umumiy maydoni 8 ming gektar. Eng chuqur joyi 5-6 m o'rtacha chuqurligi 2-3 m. Suv sig'imi 150 mln m³.

Hozirgi kunda suv sig'imi 72 mln m³ suv olish manbasi Markaziy Buxoro zovuri. Porsonko'l kollektori orqali Amudaryoga tashlanadi.

Zamonbobo ko'li va uning atrofi haqida bir qancha ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu hududda qadimdan insonlarning yashab kelganligini isbotlovchi bir qancha dalillar topilgan. Arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida bu yerda qadimgi aholi manzilgohining qoldiqlari topilgan. 1961 yilda Ahmadali Asqarovning o'rganishlari natijasida Darboza qiridan ko'l atrofiga keladi va undan 500 m chamasi sharqda Gurdush daryosi irmog'ining o'ng sohilida qadimiy makonning borligini aniqlaydi.

Zamonbobo ko'li va uning atrofidagi hududlar haqida ko'pgina olimlar ish olib borgan Asqarov A., Islamov U., Baratov P., G'ulomov Y. va boshqalar. Bugungi kunda insonlar hayotida bu hudud qadimdan yashash uchun qulay joy sifatida baholangan. Bu aholi manzilining joylashishida asos bo'lib xizmat qiladigan unsurlar qulay geografik o'rin, suv havzasining mavjudligi va shunga mos iqlimning shakllanishi kabilar sabab bo'ladi.



Zamonbobo ko'lining ko'rinishi

Zamonbobo ko'lidan samarali foydalanish yo'llari quyidagilar:

- Buxoro viloyatidagi mavjud ko'llar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish
- Mavjud ko'llar aholi yashash manzillaridan uzoqda joylashganligi shuning uchun ham ularni xalq xo'jaligida ahamiyatini oshirish;
- Ko'l atrofida turizm va dam olish maskanlarini tashkillashtirish;
- Zamonbobo ko'li atrofida topilgan qadimgi qazilma yodgorligi haqidagi ma'lumotlar va u yerda odamlarga kelib ko'rish sharoitlarini yaratish;
- Ko'lda baliqchilikni rivojlantirish va bu yerda yangi turlarni ko'paytirish kichik baliqchilik sanoatini tashkil qilish;
- Ko'ldagi mavjud yuksak o'simliklar ayniqsa qamish va buta shaklidagi o'simliklardan aholi manzillarini qurishda qurilish materiali sifatida foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hikmatov F.H, Aytboyev D.P Ko'lshunoslik .Toshkent-2002.
2. Toshov X.R, Rahimov O.H, Hikmatova G.I Suv qadri Buxoro-2018.
3. O'zbekiston geografiya jamiyati Buxoro viloyati bo'limi geografiya kafedrası -Geografiya fanining nazariy-amaliy muammolaril // Respublika ilmiy nazariy-amaliy konferensiyasi materiallari Buxoro -2006.

Internet malumotlari:

4.Geografiya.uz

5.tarix.uz

